

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



UO'K 378.183.0

ЕКОЛОГИК ТА'LIM-TARBIYANI TAKOMILASHTIRISH OMILLARI**ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ****FACTORS FOR IMPROVING ECOLOGICAL EDUCATION****Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna¹ **¹Andijon davlat chet tillari instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Uzoqjonova Moxinur Diyorbek qizi² **²Andijon davlat pedagogika instituti talabasi**Annotatsiya**

Maqolada ekologik ta'lif va tarbiyani nazarli asoslarini xalqaro tajriba va milliy mintalitet asosida zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurligi haqida fikr yuritilgan. Global ekologik inqiroz sharoitida taklif etilayotgan fazilatlarning asosiya maqsadi XXI asr sivilizatsiyasi darajasiga va tabiatga xavf tug'diruvchi kuchli antropogen ta'sirlarga mos keladigan yangicha odob va axloqqa asoslangan ekologik dunyoqarashni tarbiyalashdan iboratdir. Hozirgi kunda integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni ta'lif-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta'lifning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

Аннотация

В статье рассматривается необходимость совершенствования теоретических основ экологического образования и воспитания в соответствии с требованиями времени на основе международного опыта и национального минимализма. Основной целью предлагаемых качеств в условиях глобального экологического кризиса является воспитание экологического мировоззрения, основанного на новых манерах и этике, соответствующих уровню цивилизации XXI века и сильным антропогенным воздействиям, угрожающим природе. В настоящее время актуальность приобретает внедрение в учебно-воспитательный процесс экологической культуры на основе интегративного подхода и вывод на этой основе эффективности экологического образования на новый уровень.

Abstract

The article considers the need to improve the theoretical foundations of environmental education and upbringing in accordance with the requirements of the time based on international experience and national minimalism. The main purpose of the proposed qualities in the context of the global environmental crisis is to foster an ecological worldview based on new manners and ethics corresponding to the level of civilization of the XXI century and strong anthropogenic influences threatening nature. Currently, the introduction of ecological culture into the educational process on the basis of an integrative approach and the conclusion of the effectiveness of environmental education to a new level on this basis is becoming relevant.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, atrof-muhit, ekologik ta'lif va tarbiya, ekologik xavfsizlik, olam, tabiat va insonlar.

Ключевые слова: экологическая культура, окружающая среда, экологическое образование и воспитание, экологическая безопасность, мироздание, природа и человек.

Key words: ecological culture, environment, ecological education and training, ecological safety, universe, nature and people.

KIRISH

Dunyo mamlakatlari Shveysariya, Islandiya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlaridagi yetakshi ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida ekologik ta'lif-tarbiyani rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini qaytadan ko'rib chiqishga doir ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, ko'plab rivojlangan davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy muhofaza va barqaror rivojlanishning barcha yo'nalishlarida ekologik madaniyat tamoyillari joriy etilmoqda. Shundan kelib chiqib xalqaro ta'lif maydonida ekologik ta'lif

PEDAGOGIKA

va tarbiyani takomillashtirish, jamiyatda ekologik ma'rifat va mas'uliyatlilik, tabiatdan oqilona foydalanish madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish, global ekologik holatni barqarorlashtirish inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyatiga bog'liq ekanligi, tabiatga nisbatan yuksak madaniyat va dunyoqarashini shakllantirish, geomadaniyat va shaxsiy gigiyena, tabiiy muvozanatni buzmaslik to'g'risidagi qarashlarini qayta ko'rib chiqish, ekologik ta'lum-tarbiya va ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada BMTning "Barqaror rivojlanish konsepsiysi"da belgilangan 17 ta maqsadning 4 tasi bevosita ekologik mas'uliyatlilik, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bag'ishlangan. Bunday ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun «Sifatli ta'lum», xususan sifatli ekologik ta'lumni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Buning uchun xalqaro tashkilotlar, davlatlar miqyosida kadrlar tayyorlashning yangicha innovatsion usullarini ishlab chiqish va uni uzlusiz ta'lum tizimiga joriy qilishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ekologik ta'lum va tarbiyani rivojlantirish orqali tabiat, ekotizimlar va atrof-muhitni beqarorligini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini oshirishga doir chora-tadbirlar, ilmiy izlanishlar va milliy qonunchilik asoslari takomillashtirilmoqda. 2019-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lumni rivojlantirish konsepsiysi"ni amalga oshirishda uzlusiz ta'lum tizimida ekologik ta'lumni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izshillik bilan bosqichma-bosqich ta'lum-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta'lumning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish dolzarblik kasb etmoqda [7,15]. Bu esa, ekologik ta'lum va tarbiyani nazariy asoslarini xalqaro tajriba va milliy mintalitet asosida zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ekologik ta'lum-tarbiya tizimining nazariy asoslarini takomillashtirish zarurati dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayondagi asosiy muammo ekologik ta'lum-tarbiyaning metodologik va pedagogik jihatlarini shakllantirish masalasidir [1]. O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lumni rivojlantirish konsepsiysi "ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lum-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ekologik ta'lumning dolzarblii mamlakatimiz tabiatni, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshilar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi" [2]. Shunday ekan, ekologik ta'lum va tarbiya shu kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi kelib chiqadi.

2017-2018 yillar davomida ekologik siyosat va milliy ta'limgagi holat tubdan o'zgardi. Ekologik ta'lum metodologiyasi esa aynan ushbu huquqiy asos, siyosiy vaziyat va ijtimoiy holatni inobatga olmasdan iloji yo'q. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprelda imzolangan "Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli Farmoniga binoan "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" nomi "Ekoliya va atrof-muhit muhofazasi davlat qo'mitasi" deb o'zgartirildi [3]. Uning zimmasiga ekologik holatni yaxshilash va aholining ekologik ongi va madaniyatini o'stirishga doir bir qator vazifalar yuklandi. Qo'mita qoshidagi "Barqaror taraqqiyot (rivojlanish)" Kengashi faoliyati qayta ko'rib chiqildi. Ekologik ta'lum va tarbiyani yuzaga kelgan ta'limgagi islohotlarni inobatga olgan tarzda BMTning "Barqaror rivojlanish konsepsiysi"ga monand ravishda qaytadan ko'rib chiqish vazifasi yuklandi [8,7130].

Umuman olganda, ekologik ta'limga metodlarni tanlash va ularni uzlusiz milliy ta'lum tizimiga joriy etish uchun, avvalam bor, real sharoit va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olish, tahlil qilish va belgilashga bevosita to'g'ri keladi. Zero, mahalliy aholining ijtimoiy holati, ya'ni uni ish bilan ta'minlanganligi, ijtimoiy muhofazalanganligi atrof, tabiiy muhitga bo'lgan munosabatini bildiradi. Iqtisodiy imkoniyat esa qanday metodlarni ta'limga qo'llashda moddiy va moliyaviy imkoniyatlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir [6,40]. Ekologik vaziyat esa amaliyotni o'tashdag'i metodlarni qo'llashga bevosita bog'liqdir. Agarda ekologik ta'lumning huquqiy asosi va davlatning tashqi va ichki siyosati mos kelmasa muayyan metodlarni amalda qo'llash zarurati yo'qoladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda O'zbekistonda ekologik ta'limganlik masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Global ekologik inqirozning kuchayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa muammolar ekoharakatni faol kuchga aylanishini taqozo etmoqda. "Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin" [5,105]. Zero "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limgan barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik". Chunki "Aholi hayot darajasi va sifati ko'p jihatdan mamlakat raqobatdoshligining asosiy ko'satkichiga aylangan bugungi sharoitda taraqqiyotning muhim omili sifatida ta'limgan roli ortib bormoqda.

Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar va ta'limganlik tizimlari bilan raqobatlashmoqda". Shunday ekan, uzlusiz ta'limganlik rivojlantirish orqali jamiyatning umumiy dunyoqarashini o'stirish va tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ekologik ta'limganlik va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatları, undan kelib chiqadigan xususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miyosdagiligi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi [9,80], ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'limganlik va tarbiya shakllantiriladi hamda rivojlaniriladi.

Ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas bir qismi va u boshqa xavfsizlik omillaridan o'zining yashirin tarzda kechishi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham milliy ta'limganlik tizimida malakali ekologik kadrlar tayyorlash siyosatini to'g'ri olib borish zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biridir.

1972-yil atrof-muhit bo'yicha Stokholm konferensiyasida ekologik ta'limganlik xalqaro dasturini yaratish bo'yicha tavsiyanoma qabul qilishdi. Unda "inson-jamiyat-tabiat" munosabatining mazmuning asos ekologik ta'limganlik boshlanishi haqida uqtirildi, chunki bugungi kunda Yer kurrasida ekologik ta'limganlik atrof-muhit muhofazasi sohasida kadrlar tayyorlashning zaminidir. BMTning "Rio+20" konferensiyasining qarorida insoniyatni Yer yuzida saqlab qolish strategiyasi va barqaror rivojlanishini tatbiq qilishda ekologik ta'limganlik o'rni ulkanligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi [4,68].

Jahon mamlakatlarda ekologik ta'limganlik va tarbiyani takomillashtirish O'zbekistonga nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirildi. Yangicha yondoshuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir.

"Ekologik toza" davlatlarning birinchi 20 taligidan joy olgan mintaqaga va mamlakatlarda ta'limganlik tarbiya ishlari "Ekologik madaniyatli inson" potensialini [10,93] shakllantirish aynan maktabgacha ta'limganlik muassasidan boshlar ekan. Bunda asosiy maqsad – MTTda bolalarni ekologik ta'limganlik va tarbiya orqali ularda ekologik madaniyatning ilk elementlarini yuzaga keltirishdir. Umuman olganda, G'arbiy Yevropada bolajonlar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'lishi va ularni parvarish qilish orqali ekologik ta'limganlik va tarbiyani uch yoshdan boshlash uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar.

Avstriyada kasbiy ekologik ta'limganlik va tarbiyaga zamin tayyorlash maktab dasturlariga kiritilgan [13,323]:

PEDAGOGIKA

- maxsus məktəb loyişlərini təşkiləşdirish ("Məktəb bog'i", "Atrof-mühit tarixi", "Məktəbdə ekolojiya", "Ekolojik ustaxona", "Tabiat uchun ijodiyot");
- tabiatni muhofaza qılış aksiyalarını o'tkazish ("Ozon", "Alp faoliyati");
- turli xil didaktik materiallar və maxsus o'quv qo'llanmalarını təyyorlash;
- pedagog-ekologlar uchun seminarlar hamda bolalarning ekologik ta'limalda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislarni qayta təyyorlash kursları;
- ekologik ta'lim masalaları bo'yicha jurnal va gazetalar nashri;
- "Atrof-mühit, məktəb va jamoat" shu yo'sindagi maxsus ekologik ta'lim dasturlarını təyyorlash;
- ekologik ta'lim masalaları bo'yicha umum davlat ma'lumatlar bankını yaratış; koordinatsion funksiyalarını amalga oshirish;
- bolalarni ekologik ta'limi bilan bog'liq bo'lgan məktəb və məktəbdən təşqari ekologik ta'lim, turli loyişlər faoliyatida ishtirok etishni xohishini bildirgənlərini o'qituvchi və boshqa mutaxassislarga maslahatlar berish kobilarni o'z ichiga oladi.

Yaponiyada yüksək ekologik mə'nəviyatlı şaxsnı təyyorlash atrof-mühit sohasındığı ta'lım dasturları orqali erişilgən bo'lib, u milliy kasbiy təyyorgarlığın barcha boshqichalarını o'zida qamrab olgan. Yaponlar uncha dingə ko'p kirishmaganlar və shuning uchun ham ularda ikonalar o'rnidə go'zallik mehrobi sifatida gulli vaza turadi. Ikebana Yer planetasidagi barcha insonlarga ma'lumdir. Yaponlarning tabiatga munosabati – bu o'zgacha milliy psixologiya bo'lib, uning asosida jamoaviy ong yotadi. Shuning uchun ham ularda ekologik tarbiya qadimiy tarixga egadir [14,226].

Amerika Qo'shma Shtatlarda ekologik ta'lım va tarbiya turli shakl, yo'nalish va metodologik yondashuvga ega hisoblanadi, barcha ta'lım va tarbiya mazmuniga ekologik etikani chiqur kirib borishi, aholining atrof-mühitga ehtiyojkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lislərini shakllantirish jarayonida keng ommani, ayniqsa, nodavlat jamoat tashkilotlarını jalb qılış bilan birga olib boriladi.

Umuman olib qaraganda ekologik ta'lım insonlarni tabiatga bo'lgan munosabatını o'zgartirishga qaratilgan fikrlashuvga, xulq va atrof stereotiplarını shakllanishiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, har bir davlat va inson tomonidan kasbiy etikaning yangi tamoyillarini qabul qılışga, madaniyat va adolatga, ba'zi bir cheklərlər və taqıqlarını o'rnatilishiga, ekosfera qonunlarining rivojiga qaratilgandır [11,16].

Ekologik tarbiyanı belgilovchi fazilatlar yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda asosiy urg'u o'quvchi va talabalarning o'zi yashab turgan xonadoni, mahallasi, shahriga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini, ya'ni vatanparvarlik ruhini, tabiatga nisbatan axloqiy qadriyatlarını, tabiat uchun shaxsiy mas'uliyat hissini, unga qiziquvchanlik va uni asrab-avaylashni, teran bilimlilikni shakllantirishga qaratilgan [12,64]. Bu fazilatlar o'zbek xalqining ekologik qadriyatlarining boy mazmunini o'rganish, tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlash va e'zozlash, diniy qadriyatlarni hurmat qılış asosida kuchaytiriladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, o'quvchi-talabalarda ekologik ta'lım ko'nikmalarını shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarning muvaffaqiyati maxsus metodikaning ishlab chiqilishi hamda uning g'oyalariga muvofiq ish ko'rishga bog'liqidir. Yuqoridağı fikrlardan kelib chiqib quyidagi umumi xulosalarını berishimiz mumkin:

Ekologik tarbiyaning maqsadi – kishilarni hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash uchun ularni ekologik mə'nəviyatlı qilib təyyorlashdır. Odadta, ekologik tarbiya ekologik ta'lım orqali kirib keladi va u ekologik madaniyat bilan baholanadi. Chunki zamonamizda yüksək ekologik mə'nəviyatlı va mə'rifatlı shaxsgina ekologik ta'lım orqali olgan kompetensiyalarını madaniyat ko'rsatkichlariga olib chiqqa oladi.

Ekologik ta'lım, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo'nalishdagi tadqiqot qılış, o'rgatish va amalga joriy etish predmetida o'z aksini topadi: ekotizimlarni muhofaza qılış; ekotizimlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashdan iborat.

Ekologik ta'lım va tarbiyanı rivojlantirish borasındagi xorij tajribasiga ko'ra, Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarda atrof-mühitni muhofaza qılış strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qılışga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-mühit muhofazası masalaları kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning

atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirildi. Yangicha yondoshuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir.

Ekologlarni kasbiy kompetensiyalarini shakllanish modeli – ekologik ta'limni tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini ham tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Bu ekolog mutuxassisligining kasbiy faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talab bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprelda imzolangan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli Farmoni.
4. Зубарев А.Е. Развитие экологического образования в 90-е годы XX – начале XXI в.в. // Экологическое образование на пороге «РИО + 10»: VIII Междунар. конф. по эколог. образованию: Тез. докл. – М., 2002. – Ч. I. – С. 67- 72.
5. Tojiboyev M. U., Uzoqjonova M. D. Q. Farg'ona vodiysida tarqalgan ruderal shifobaxsh o'simliklar, ularning tarqalishi va ahamiyati //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 8. – C. 101-107.
6. Uzoqjonova M. D. Q. Inson salomatligida dorivor o'simliklarning xususiyatlari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 7. – C. 38-42.
7. Uzoqjonova, M. D. qizi. (2024). Baliqlar va ularning ekologik ahamiyati. Science and Education, 5(1), 13–17. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/6556>.
8. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – C. 7128-7131.
9. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. qizi. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rghanish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78–83. Retrieved from <https://www.opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/6393>.
10. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.
11. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.
12. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
13. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
14. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228.